

A J R I M

(Jazoni o'tash uchun manzil-koloniyasiga o'tkazish to'g'risida)

2021 yil oktabr oyining 15 kuni jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudining ochiq sayyor sud majlisi Qarshi shahar 3-son JIEKoloniyasi ma'muriyati binosida bo'lib, raislik qiluvchi: sudya Sh.Eshimov, sudya yordamchisi O.Hamidov, Qashqadaryo viloyati qamoqqa olinganlarni saqlash va jazoni ijro etish joylarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha Qarshi maxsus prokurori yordamchisi K.Pulatov, koloniya vakili O.Qodirovning ishtirokida, 3-son JIEKoloniyasining jazo muddatini o'tayotgan mahkum Kaxarov Xusanjon Maxamadjanovichni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 113-moddasiga asosan o'talmay qolgan jazosini o'tash uchun manzil koloniyasiga o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomasini to'plangan hujjatlar bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I:

Mahkum Kaxarov Xusanjon Maxamadjanovich, 1975 yil 14 iyunda Andijon viloyati Andijon shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta, oilali, 1 nafar farzandi bor, vaqtincha ishlamagan, muqaddam sudlangan;

1) Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon tuman sudining 2000 yil 7 yanvardagi hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi JK 127-moddasining 3-qismi, 165-moddasi 3-qismining "b" bandi bilan JKning 59-moddasiga asosan 5 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

2) Jinoyat ishlari bo'yicha Xo'jaobod tuman sudining 2004 yil 20 fevraldagi hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi JK 122-moddasining 1-qismi bilan 2 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan.

A) Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudining 2004 yil 28 avgustdagi ajrimiga asosan, o'talmay qolgan 2 yil axloq tuzatish ishlari jazosi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan.

B) Jinoyat ishlari bo'yicha Zangiota tuman sudining 2005 yil 13 avgustdagi ajrimiga asosan, o'talmay qolgan 1 yil 3 oy 1 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi shu muddatga axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan.

3) Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudining 2009 yil 6 apreldagi hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi JK 278-moddasining 1-qismi bilan 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

A) Jinoyat ishlari bo'yicha Olmaliq tuman sudining 2010 yil 12 fevraldagi ajrimiga asosan, o'talmay qolgan 1 yil 11 oy 11 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi shu muddatga axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan.

B) Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudining 2010 yil 21 dekabrda ajrimiga asosan, o'talmay qolgan 1 yil 11 oy 11 kun axloq tuzatish



ishlari jazosi shu muddatga ozodlikdan maxrum qilish jazosiga almashtirilib, o'talmay qolgan 5 oy 13 kun jazosi muddatidan ilgari shartli ravishda 2012 yil 19 iyun kuni ozod qilingan.

Qamalgunga qadar; Andijon shahar, Juma bozor MFY, Bo'taqara ko'chasi, 41-uyda yashagan.

Ushbu jinoyat ishi bo'yicha: jinoyat ishlari bo'yicha Bo'z tuman sudining 2017 yil 21 dekabrda hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasining 1-qismi, 169-moddasining 1-qismi bilan JKning 59,61-moddalari tartibida 12 yil 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, jazoni umumiy tartibli koloniyalarda o'tash belgilangan.

Jazo muddatining boshlanishi: 17.09.2017 yil
Jazo muddatining tugashi 17.10.2029 yil

Sud ishda mavjud bo'lgan hujjatlarni tekshirib chiqib, prokuror va koloniya vakili fikrlarini hamda mahkumning so'zini eshitib, muhokama qilib, mahkum X.Kaxarov jazo muddatini o'tash davomida o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarganligini va mehnatga halol munosabatda bo'lganligini, sud tayinlagan jazo muddatini kamida 1/3 qismini ya'ni 4 yil 28 kunini haqiqatda o'tab bo'lganligini e'tiborga olib, uning o'talmay qolgan 8 yil 2 kuni ozodlikdan mahrum qilish jazo muddatini o'tash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 113-moddasiga asosan manzil koloniyaga o'tkazishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 537, 541, 542-moddalariga amal qilib, sud

A J R I M Q I L D I:

Mahkum Kaxarov Xusanjon Maxamadjanovichning iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

O'zbekiston Respublikasi JKning 113-moddasiga asosan, mahkum Kaxarov Xusanjon Maxamadjanovich o'talmay qolgan 8 yil 2 kuni ozodlikdan mahrum qilish jazo muddatini o'tash uchun manzil-koloniyaga o'tkazilsin.

Ajrim nusxasi ijro qilish uchun prokurorga va 3-son JIEKoloniya boshlig'iga yuborilsin.

Ushbu ajrimdan norozi taraflar yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudiga xususiy tartibda shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi sudya

Sh.Eshimov



Ҳужжат имзоланган: Эшимов Шахриддин Хужаёрович, 19.10.2021

